



1-TOM, 12-SON  
VARIATSIYA VA UNGA YONDOSH HODISALAR. ULARNING  
IZOHЛИ LUG‘ATLARDA BERILISHI

Qobilova Mahbuba Mo‘minjonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

tayanch doktoranti

qmahbuba0702@gmail.com

**Annotatsiya:** Variatsiya fonologik-fonetik va ma’noviy xususiyatlari bilan paronim, polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya kabi til hodisalari bilan munosabatdosh, ularga o‘xhash, noo‘xhash jihatlarga ega. Ushbu maqolada variatsiyaga uchragan terminlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Variatsiya, sinonim, antonim, paronim, omonim, leksema

**Abstract:** Variation is related to linguistic phenomena such as paronymy, polysemy, homonymy, synonymy, antonymy with its phonological-phonetic and spiritual characteristics, and has similar and dissimilar aspects. This article discusses the terms that are subject to variation.

**Key words:** Variation, synonym, antonym, paronym, homonym, lexeme

Variatsiya polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya va paronimiya o‘zbek tili leksikasi tizimida o‘ziga xos mazmun va ifoda jihatiga ega bo‘lgan universal hodisadir. Leksemalarning morfologik varianti va variantdorligi – bir lisoniy birlikning turli shakllaridir. Sinonimlar, omonimlar, antonimlar va paronimlar esa turli leksemalardir.

Bir xil asosli paronimlar ma’noviy jihatdan qisman o‘xhash, yaqin bo‘lishi mumkin. Bir xil asosli sinonimlarda esa aksariyat holatlarda ma’noviy yaqinlik bo‘ladi. Morfologik yoki fonetik variantdosh leksemalarda hamisha ma’noviy moslik mavjud. Omonimlarning ma’nolari hamisha har xil, hech qachon ma’noviy moslik, yaqinlik bo‘lmaydi. Bir asosli yoki turli asosli antonimlarga ma’noviy zidlik, qarshilantirish xos. Bir xil asosli antonimlarda aytish, talaffuz o‘xhashligi qisman saqlanadi.

Leksemalarning variantlari, sinonimik qator a’zolari matnda almashtirilishi, biri o‘rnida boshqasi qo‘llanishi mumkin. Paronimik jarayon, omonimik qator va antonimik qotorlar esa bunday lisoniy-nutqiy imkoniyatdan mahrum<sup>1</sup>.

Leksemalarning morfologik variantlari – bir lisoniy birlikning turli xil shakli, paronimlar, omonimlar va bir xil asosli sinonimlar hamda antonimlar har xil lisoniy

<sup>1</sup> Паронимия // <http://bugabooks.com/book/221-russkij-yazyk-i-kultura-rechi/114-paronimiya.html>





## **1-TOM, 12-SON**

birliklardir. Paronimlar ham xuddi omonimlar va antonimlar singari har xil leksemalardir.

Paronimlar, variantdosh leksemalar, bir xil asosli sinonimlar, omonimlar va antonimlarni umumlashtiradigan narsa tuzilish jihatdan bir xilligidir. Ammo ularning semantik jihatida katta farq bor: antonimlarning ma'nosi – zid, qarama-qarshi, omonimlarning ma'nosi – butunlay har xil, sinonimlarning ma'nosi – yaqin, variantdosh leksemalarniki – bir xil, o'xhash, paronimlarning ma'nosi – har xil. Sinonimlar kabi paronimlar ham, ayniqsa, bir xil asosli paronimlar ma'noviy jihatdan bir-biriga yaqin leksemalardir. Ammo paronimlarda ma'noviy bir xillik, aynanlik, to'la o'xhashlik bo'lmaydi, sinonimlarda esa ma'no jihatdan moslik mavjud bo'ladi, xususan, bu xususiyat leksema ma'nosining qismlarida, tarkibida, elementlarida kuzatiladi. Sezgir, ziyrak, tuyg'un, hushyor, sergak, tiyrak – sinonim<sup>2</sup>

Paronimiya yaqin, yondosh til hodisalaridan biri variatsiya, ya'ni variantlilikdir. Variantlilik, variantdoshlik deyilganda til birliklari majmuidagi ma'lum birlikning turli xil fonetik va morfemik, leksik o'zgarishi va o'zgarish natijasida yuzaga kelgan shakllar tushuniladi<sup>3</sup>. Yozma nutqda leksemalar grafik jihatdan morfologik, fonetik variantli tarzda bo'ladi. Variant va variantlilik invariantga nisbatan belgilanadi. Og'zaki nutqda esa leksemalar fonetik nuqtai nazardan ikki va undan ortiq shaklda talaffuz etilishi mumkin: kaptar – kabutar, martaba – marotaba, lekin – lokin, namoz – nomaz – nomoz, bag'ir – bag'r, sabr – savr, bo'xcha – bo'g'cha – bo'g'ja, kavush – kafsh<sup>4</sup>. O'tilda variantdosh leksemalar ayn. belgisi bilan berilgan: kavush [φ فش – oyoq kiyimi, boshmoq] (Charmdan tikilgan va odatda mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi), Kafsh [φ. فش – oyoq kiyimi; kavush. esk. kt. ayn. kavush]. Morfologik variantli leksemalar ham mavjud: -kaz/-kiz: o'tkazmoq/o'tkizmoq; -qaz/-qiz: o'tqazmoq/o'tqizmoq; -gan/-kan/-qan: o'tgan/o'tkan/chiqqan.

Paronimlar har xil tushuncha, narsa, belgi, harakat, holat, daraja, xususiyat va shu kabilarni bildiradi. Variantdosh leksemada bunday xususiyat bo'lmaydi, bitta tushuncha, narsa, belgi, harakat, holat, daraja, xususiyat kabilarni anglatadi. Variantdosh birliklar gap mazmuniga ta'sir qilmaydi, gap uslubida farqlanadi.

Uslubiy jihatdan paronimlar va variantdosh birliklar o'rtasida umumiylilik, o'xhashlik yo'q. Paronimlar uslubiy jihatdan betaraflik xususiyatiga ega. Variantdosh birliklar uslubiy betaraflik xususiyatiga ega emas. Bu hodisa O'TILda

<sup>2</sup>Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. –Б. 117.

<sup>3</sup>Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С.80.

<sup>4</sup>O'zbek tilining izohli lug'ati II tom 290, 337.





## **1-TOM, 12-SON**

quyidagicha beriladi. Har bir variant nutq uslublarining ma'lum bir usuliga xoslangan bo'ladi. Oftoba – badiiy nutq birligi. Oftova, optova – so'zlashuv nutqi birligi. Optova – asosan shevaviy shakl. Variantdosh birliklarda shevaviylik, oddiy so'zlashuv nutqiga xoslanganlik, nutq sohiblarining ijobiy yoki salbiy munosabatlarini ifodalashga moyillik (qarg'ish, koyish, alqash, duo qilish, maqtash, haqoratlash, dag'allik ...) bo'ladi. Paronimlarga nisbatan variantdosh lisoniy birliklarda shevaviylik, oddiy so'zlashuvga xoslanganlik, dag'allik, salbiy munosabatlarni ifodalashlik sezilarliroq, ko'proq, kuchliroq bo'lishi mumkin.

Variantdosh birliklar bilan paronimlar o'rtaсидаги xususiyliklarning ayrimlari:

- 1) paronimlar, odatda, fe'l, ot, sifat, ravish, taqlid, qisman undovlar o'rtaсидада uchraydi. Variantlilik barcha turkumlarga xos;
- 2) paronimlar, asosan, ikki lisoniy birlik o'rtaсидада bo'ladi, ikkita lisoniy birlikdan tashkil topadi.

Xulosa qilib aytganda, paronim leksemalar variantdosh birliklardan, asosan, fonetik va gramma tik jihatdan ko'ra, ma'no-mazmun jihatdan farq qilishi ustuvor xususiyatdir. Fonetik va gramma tik jihatdan ham variantdosh birliklar paronimlardan katta farq qiladigan lisoniy mavqega ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Паронимия // <http://bugabooks.com/book/221-russkij-yazyk-i-kultura-rechi/114-paronimiya.html>
2. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990.
4. “O'zbek tilining izohli lug'ati” II tom. – T: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2006,2008.

